www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Samarqand arki haqida chet el sayyohlarining xotiralari

Ya. G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti
kichik ilmiy xodimi **Abdug'aniyev Abdulxay**

Annotatsiya: Mo'g'ullar istibdodiga butunlay barham bergan Amir Temur o'z davlatining bosh istehkomi sifatida Samarqand arkini qurishga jazm etgan va uni shaharning janubi-g'arbiy qismida bunyod ettirgan. Bu haqida tarixchilar va sayyohlar ma'lumotlar berib o'tishgan. Biz arki oliya tarixini ularning manbalari va arxeologik manbalar asosida o'rganamiz.

Kalit so'zlar: Arki oliya, ko'ksaroy va bo'stonsaroy, Samarqand, Vambery, qal'a, saroy, shahar.

Ma'lumki, Amir Temur Samarqandni o'z saltanati poytaxti etib e'lon qilgach, shaharda keng ko'lamli obodonlashtirish ishlarini amalga oshiriladi. Xususan, 1371-1372 yillarda shaharning g'arbiy qismida 34 ga maydonni o'z ichiga olgan Arki oliya bunyod etiladi. Temuriylar davriga oid yozma manbalarda Arki oliya ikki qator mudofaa devori bilan o'rab olinganligi aytiladi.

Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me'morchilikda namoyon bo'ldi. Oqsaroy peshtoqida bitilgan "Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, imoratlarimizga boq!» degan yozuv Amir Temur saltanatining siyosiy maqsadini ham anglatar edi. Saltanat poytaxti Samarqandni rivojlantirishda Amir Temur alohida e'tibor berdi. Uning farmoni bilan hisor, qal'a, ulug'vor inshootlar va tillakor saroylar bunyod etildi. Temuriylar davrigacha va undan keyin ham Movarounnahr hamda Xuroson me'morchiligida bezak va naqsh bu qadar yuksalmagan edi. Temuriylar davrida qurilgan saroylar ikki xil bo'lgan. Birinchisi- ma'muriy-siyosiy vazifani bajargan bo'lib, qal'a yoki hisor ichiga qurilgan. Ikkinchisi - shahar tashqarisidagi qarorgohlar bo'lib, qabul marosimi, majlislar o'tkazilgan va hordiq chiqarilgan. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganidan keyin Samarqand davlatining poytaxtiga aylandi. Temuriylar davri devori asosan XI—XII asrlar devorining konturini takrorlagan relefga qarab qirrali bo'lgan. Turli joylarda va ko'plab minoralar bilan mustahkamlangan. Shaharning eng baland qismida g'arbiy tomoni shahar devoriga to'g'ri keladigan qal'a qurilgan[1]. Qal'a Samarqandning ma'muriy va ma'lum darajada harbiy markaziga aylantirilgan. U qo'shaloq mudofaa devori bilan o'ralgan[2], qo'rg'onning chiqish burchaklarida dumaloq minoralar qurilgan. Bundan tashqari, minoralar qal'aning strategik ahamiyatga ega bo'lgan joylarida qad rostlagan. Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo tavsifi va xotiralariga ko'ra, Amir Temur qal'asida ikkita saroy bo'lgan: Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy, bu yerda zirh, dubulg'a, kamon, o'qlar yasagan minglab asir ustalar saqlangan[3]. Bo'stonsaroy yaqinidagi qal'aning shimoli-sharqiy qismida obi-muri suvining yer osti manbai bo'lgan. Saroylarning tavsifi juda qisqa. Bo'stonsaroy arkning shimoliy mudofaa devorida joylashgan bo'lib, hukmdorlar arkda bo'lgan vaqtlarida turar joyi bo'lgan. Qo'rg'on markazida Ko'ksaroy qurilgan bo'lib, u yerda boshqa davlatlar elchilari va mahalliy zodagonlar uchun rasmiy qabullar o'tkazilib, mamlakatning har bir keyingi hukmdori bu yerda taxtga o'tirar

[1] Бартольд В.В. История Туркестана. Ташкент, 1922.с-43., . Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилайета // СКСО, вып. ВИИ. Самарканд, 1902.с-17
[2] Бабурнамэ. Ташкент, 1958с-50
[3] Клавихо Г. Дневник путешествия ко двору Тимура. СПб., 1881.с-330-331

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

edi. Mirzo Ulug‘bek saltanatining oxirida, sobiq qudratli Amir Temur davlatida siyosiy tartibsizliklari boshlanib, temuriylar sulolasining qulashi va Shayboniyxon hokimiyatining o‘rnatilishiga yanada ko‘mak berdi[4]. O‘shandan beri Samarqand qal’asi va uning binolari haqida tarixiy manbalarda ma’lumotlar yo’q. Shayboniyxon vafotidan keyin Shayboniylar sultonlari o‘rtasida o‘zaro nizolar boshlandi. Xuddi shu manzara Ashtarxoniylar davrida ham davom etib, Samarqand va uning qal’asini XVIII asrda yakuniy tanazzuliga olib keldi[5]. 1740-yilda Nodirshohning Samarqandga yurishi davrida “ mingga yaqin oila o‘rnashib olgan qal’adan tashqari, mutlaqo aholi yo’q edi”[6].

Amir Temur qal’asi haqida ko’plab chet ellik sayyohlar va tashrif buyurgan elchilar ma’lumotlar berib o’tishgan. O’rta Osiyoda Samarqand shahri uning shahar tuzilishi va madaniyati Rossiya imperiyasida katta qiziqish uyg'otmoqda edi. A. Vamberi 1860-yillarda tashrif buyurganda va tarixiy ahamyatini ochib berishga hissa qo’shdi, xususan Samarqand toponimiyasi haqidagi ma’lumotlarni asosan vaqf hujjatlaridan aniqlaydi. A.Vamberi 1863-yil Samarqandga tashrif buyurganda bozor yaqinidagi karvonsaroyda yashaydi, so’ngra Amir Temur maqbarasi yaqinidagi xususiy uyga taklif qilinadi, uy egasi qal’a xizmatchisi edi, shu odam tufayli u qal’aga kirishga muvoffaq bo’ladi. A.Vambery o‘sha yerda ya’ni Samarqandda bo‘lganida ko'rgazmalarni tekshirish uchun barcha imkoniyatlar bor edi. Biroq u o‘z xotiralarida faqat ayrim tarixiy voqealar va shahar yodgorliklari haqida ma’lumot beradi. A. Vambery shuni ta’kidlaganki, Samarqand ikki qismga bo‘lingan: ichki va tashqi ichki qal’adan Amir saroyi joylashgan bo’lib, tashqi qalada esa aholi turar joylari joylashgan edi. Shuningdek u Amirning saroyidagi markaziy xona (oynaxona) ni oynalar bilan qoplanganini tasvirlaydi. Boshqa xona esa Temur qabulxonasi deyiladi, u uzun tor hovlili va yopiq galeriya bilan o’ralgan. Uning old tomonida mashhur Ko’ktosh bor edi (taxt toshi), an'anaviy ravishda Buxoro hukmdorlarining toj kiydirilishi joyi edi[7]. G.Vamberining ta’rifiga ko‘ra, Ko’ktosh taxti o’rnatilgan xona bir qancha ustunli yopiq galereya bilan o‘ralgan uzun hovli edi. Ko‘ktoshning o‘ng tomonida devorga yarim kokos yong‘og‘iga o‘xshash oval temir parchasi (ehtimol meteorit) o‘rnatilgan bo‘lib, uning tepasida kufiy alifbosidagi arab yozuvi o‘rnatilgan. Afsonaga ko‘ra, bu xalifalar uchun tilsim bo‘lib xizmat qilgan Sulton Bayazid-Yildirimning sovg‘asi edi. O’sha tosh tepasida zarhal harflar bilan yozilgan ikkita ferman bor. Ulardan biri Sulton-Mahmudga, ikkinchisi Sulton-Abdul-Majidga tegishli bo‘lib, ular rukzati-namoz (namoz o‘qish va raislik qilish uchun rasmiy ruxsat - din homiysi) edi. 1875-yilda Samarqand qal’asining rejasi olinib, unga uning barcha binolari, jumladan Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroy konturlari chizilgan va taxt xonasi rekonstruksiya qilingan. 1878 yilda eski qal’aning devorlari buzib tashlangan va uning o‘rniga kichik rus qal’asi qurilgan. U ikkita paxsa devordan qurilgan qo‘shaloq mudofaa devoriga ega edi[8]. 1868-yilda V.Vereshchagen Samarqandda bir necha oy boldi va amir saroyini tasvirladi: "Taxt zali katta galereya bilan o'ralgan hovli edi, uning oxirida Kuktosh bor edi". Saroy baland va keng xonalardan iborat edi. Uning yaqinidagi xona haram uchun edi[9]. Samarqandga bag‘ishlangan

[4] ЎзССР тарихи, 1967, 512-б
[5] Бартольд В.В. История Туркестана. Ташкент, 1922.с-49
[6] Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Л., 1927.с-99

[7] Ármin Vámbéry: Travels in Central Asia: Being the Account of a Journey from Teheran Across the Turko man Desert on the Eastern Shore of the Caspian to Khiva, Bokhara, and Samarcand Performed In the Year 1863. London: J. Murray, 1864, s-205-206.

[8] Массон М.Е. Архитектурно-планировочный облик Самарканда времени Навои // Тр. САГУ. Т., 1956.с-59
[9] Верещагин В.В. На войне в Азии и европе. Москва: типо-литография товарищества И.Н.Кушнерев, 1898, с-1–2.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

turkum kartina va grafik eskizlarni yaratgan taniqli rus jangovar rassomi A.K.Vereshchagin edi. U rus askarlari bilan birga Amir Temur qal'asida "Qal'a devorida", "Kirishsin", "Muvaffaqiyatsizlikdan keyin!", "Kirish!" rasmlarini chizgan. Bu rasmlarda, asosan, Buxoro darvozasi yonidagi arkning mudofaa devorining qismlari tasvirlangan. Qal'a ichidagi binolardan uning shimoliy yarmida joylashgan zindon qamoqxonasining eskizi mavjud[10].

Bundan tashqari Rossiyadan 1841-yilda yuborilgan Buxoro ekspeditsiyasi a'zosi ofitser Yakolevning xaritasida shahar devor bilan o'ralgan, shahar atrofi chuqur va keng xandaq bilan o'ralgan. Qal'a yoki saroy devorning g'arbiy burchagida joylashgan. Bu yerda Samarqand hokimi istiqomat qiladigan kamtarona saroy bor edi. Saroy yaqinida katta otxonalar, ustaxona, omborxona va harbiy kazarma mavjud va binolari ichida ko'plab turar-joylar, diniy binolar, masjidlar va mozorlar (ziyoratgohlar)mavjud edi. 6 ta darvoza orqali katta yo'llar bilan shaharni tark etish mumkin edi. Bu yo'llar shahar markaziga tutashgan. Har bir darvozadan boshlanadigan yo'l bozor markaziga olib borardi. Samarqandda oltita darvoza bor edi: Buxoro, Paykobak, Xazrati Shohi Zinda, Qalandar-Xon, Suzangaron, Xo'ja-Ahror darvozalari bo'lgan.

Shahar atrofi 13 verst (20 km) ga teng bo'lib, bu shaharning Buxoro amirligiga buysunganidan dalolat berardi, ammo bu shaharning kattaligi bog'larining ko'pligi bilan bog'liq edi. Shaharda 22ta bog' keltirilgan. XIX asrning boshlarida Samarqanddada to'rt qismli tuzilma (tuman) bor edi: Qalandarxana, Xayrobod, Suzangaron va Xoja Ahror kabi qismlarga bo'lingan edi. Hokim (mahalliy hokimlar)tomonidan boshqariladigan Samarqand dahalari o'z navbatida guzarlar deb nomlangan mavzelarga bo'lingan edi. Shahrida ixtisoslashgan bozorlar bor va bu olacha deb atalardi, unda un mahsulotlari, don, non va boshqa oziq ovqat mahsulotlari sotilardi[11].

Rossiyalik diplomat A.A.Tatarinov Samarqand qal'asida uch oy tutqinlikda o'tkazdi. Uning xotiralari 1866 yil mart-may oylariga to'g'ri keladi. Tatarinov tutqinlik vaqtida, Samarqand bekining saroyi, shuningdek bekining harami va Samarqand qal'asi va undagi odamlar haqida ma'lumotlar berib o'tgan. Xususan u shunday yozadi: Samarqand qal'asi yaqinida baland daraxtlar o'tqazilgan hovuz bor edi, uning yonida Samarqand gubernatori o'g'lining chodiri qurilgan. Amir Muzaffarning Samarqanddagi qisqa davrida o'z tashabbusi bilan shaharda ko'pgina binolar qurildi. Xususan to'rt qismli masjid, minora, Ruhobad maqbarasi yaqinida binolar, hovuz va xonaqoh qurilgan. 40 ta maqbaraga baliq tasvirlangan yangi eshiklar o'rnatildi. Amir Muzaffar tomonidan qurilgan Madrasa-i-Ali, unda toliblar(talabalar) uchun 48 ta hujayra bor edi. O'sha yerda madrasa yonida baland daraxtlar bilan o'ragan katta hovuz bor edi[12]. 1980-yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalarda taxt xonasi devorining orqasida Amir hammomi ekanligini aniqlangan. Qal'aning sharqiy devori bo'ylab kazarmalar qurilgan, shimolda ular sarbozlarning hovlisi edi (amirning piyodalari)[13]. Tatirnov Samarqand haqidagi eng keng tarqalgan fikrlarni aytadi. U bu muqaddas ekanligini, musulmonlar shahri va Tamerlanning sobiq poytaxti ekanligini ta'kidlaydi va Buxoro amirlari ko'ktoshda taxta o'tiradi[14].

---

[10] Лебедев А.К. Верещагин. Жизнь и творчество. М., 1958 с-113

[11] Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства, Санкт-Петербург,1843, с-100–105.

[12] Татаринов А. Семимесячний плен в Бухари. Рипол Классик, 1867, с-87–88.

[13] Бурякова Э.Ю., Лебедева Т.И. Оборонительная система цитадели Тимура // ИМКУ, вып. 22. Ташкент, 1988.s-161-174.

[14] Татаринов А. Семимесячний плен в Бухари. Рипол Классик,1867,с-20-91.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Nisbatan batafsil yoritib bergan A.Vamberining o'tmishdoshlari orasida Samarqand va uning tarixiy obidalari haqida sharqshunoslar Bogoslovskiy va N.V.Xaniqovlar Samarqand qal'asi ulkan hududni egallaganini ta'kidladi. Qal'a Buxoro va Qarshi qal'asidan kattaroq, uning atrofi 3,2 km edi. 1841 yilda Samarqand qal'asida bir necha kun yashagan edi. Qal'ada qutbi chohar-Dahum mozori, Amir saroyi va xonlar ko'tarilgan mashhur Ko'k-tosh ("moviy tosh") lar bor edi. Bundan tashqari qal'ada Samarqand hokimining uyi, bir nechta masjidlar bo'lgan va aholining yashash uylari ham bor edi[15].

1868-yilda Samarqandga tashrif buyurgan tilshunos Radlov ushbu qal'aning ko'chalari daryolar bilan to'lgan. Bu yo'llarning o'rtasida ko'chalarning birida amirning qal'asi joylashgan edi. Yiliga bir necha oy va har bir yangi amir taxtga o'tiradigan joy ya'ni qal'ada ko'plab hovlilar, binolar, binolar va galereyalar bilan o'ralgan edi. Boshqa barcha uylar loydan qurilgan bo'lib, faqat ba'zilari gips bilan qoplangan edi[16].

Amir Temur arki xususida berilgan ushbu ma'lumotlar barchasi bir birini to'ldiradi va ularning aksaryati XIX asrdagi Samarqand haqida so'z yuritiladi. Bunda asosan rus elchilari, sayohhlari Samarqand shahri va uning me'moriy obidalari, madanyati haqidagi malumotlari beradi. Ayniqsa arkning joylashuvi, undagi obektlar, mudofaa devori xususan Temurning qabul zali va Ko'ktosh haqida ko'plab so'z yuritilgan bo'lsa boshqalarida esa Samarqandning aholisi, etnik tarkibi, hukumdor oilasi va harami haqida o'z xotiralarida yozib o'tishgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi xaritalarga tayanib ushbu hududlarning ma'lum bir qismida borilgan tadqiqotlar natijasida tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan inshoot qoldiqlari topildi. Ark hududida O'zR FA Arxeologiya instituti tomonidan 1980-1982, 1986,1989 yillar davomida arkning 30 dan ziyod joyida shurf va planografik qazishma ishlari olib borilib, turli davrlarga oid inshootlar qoldiqlari aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бабурнамэ. Ташкент, 1958 й.

2. Бартольд В.В. История Туркестана. Ташкент, 1922 й.

3. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Л., 1927 й.

4. Бурякова Э.Ю., Лебедева Т.И. Оборонительная система цитадели Тимура // ИМКУ, вып. 22. Ташкент, 1988 й.

5. Верещагин В. На войне в Азии и Европе. Москва: типо-литография товарищчества И.Н.Кушнерев, 1898 й.

6. Клавихо Г. Дневник путешествия ко двору Тимура. СПб., 1881 й.

7. Лебедев А.К. Верещагин. Жизнь и творчество. М., 1958 й.

8. Массон М.Е. Архитектурно-планировочный облик Самарканда времени Навои // Тр. САГУ. Т., 1956 й.

9. Радлов В.В. Из Сибири. Москва: Наука, 1989 й.

10. Татаринов А. Семимесячний плен в Бухарии. Санкт-Петербур, 1867й.

[15] Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства, Санкт-Петербург,1843,с-101-102.
[16] Радлов В.В. Из Сибири. Москва: Наука, 1989,с-541–554.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

11. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства, Санкт-Петербург,1843й.

12. ЎзССР тарихи, 1967 й.

13. Ármin Vámbéry: Travels in Central Asia: Being the Account of a Journey from Teheran Across the Turko

man Desert on the Eastern Shore of the Caspian to Khiva, Bokhara, and Samarcand Performed In the Year

1863. London: J. Murray, 1864 y.